



STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI O‘ZBEKISTON – SERBIYA KO‘P QIRRALI HAMKORLIGI JADAL RIVOJLANIB BORAYOTGANINING AMALIY IFODASI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchichning taklifiga binoan 7-8-sentabr kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.



8-sentabr kuni Belgraddagi Serbiya saroyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni tantanali kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchich davlatimiz rahbarini samimiy qarshi oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tordidi. Harbiy orkestr ijrosida O‘zbekiston va Serbiya davlat madhiyalari yangradi, artilleriya to‘plaridan o‘n marta o‘q uzilib, tantanali salyut berildi.

Davlat rahbarlari faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini qutladilar.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchichning yuzma-yuz va rasmiy delegatsiyalar ishtirokidagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston va Serbiya o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari Serbiya yetakchisiga samimiy qabul va mehmondo‘stlik uchun minnatdorlik bildirib, O‘zbekiston Prezidentining

Belgradga ilk tashrifi mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarda yangi bosqichning boshlanishi sifatida tarixga kirishini ta’kidladi.

Siyosiy muloqot, parlamentlararo aloqalar, savdo-iqtisodiy hamkorlik hamda ishbiarmonlik va gumanitar almashinuvlar faollashgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Kelajakda diplomatik vakolatxonalar ochilishi va parlamentlararo forum tashkil etilishi munosabatlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalar hamkorlikning mustahkam poydevoriga aylanmoqda. Yil boshidan buyon yuqori darajadagi delegatsiyalar ishtirokida qator iqtisodiy tadbirlar muvaffaqiyatli tashkil etildi.

O‘zaro savdo hajmini birinchi navbatda talab yuqori bo‘lgan tovarlar yetkazib berishni kengaytirish hisobiga oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Bu borada Erkin savdo to‘g‘risidagi bitimni ishlab chiqish va qabul qilish, standartlashtirish sohasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, o‘zaro

ko‘rgazmalar tashkil etish muhimligi ta’kidlandi.

Bundan tashqari, kelgusi yili O‘zbekiston Belgrad shahrida bo‘lib o‘tadigan “EXPO — 2027” xalqaro ko‘rgazmasida o‘zining milliy pavilyoni bilan faol ishtirok etishi qayd etildi.

Transport va logistika, yengil va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo‘jaligi, farmatsevtika, tibbiyot va raqamli iqtisodiyot kabi ustuvor yo‘nalishlarda yangi qo‘shma loyihalarni amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi. Avtomobil qismlari, uskunalari, elektrotexnika va elektronika ishlab chiqarish borasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjudligi ta’kidlandi.

Barcha kelishuvlarni sifati amalga oshirish maqsadida 2026-2028-yillarga mo‘ljallangan sanoatda sheriklikni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma harakatlar rejasini qabul qilindi.

Hududlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish muhimligi xususida so‘z bordi. Yetakchilar Samarqand viloyati va Voyevodina avtonom o‘lkasi hamda Samarqand va Novi-Sad shaharlari o‘rtasida

to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalar o‘rnatilganini olqishladilar.

Gumanitar sohada ta’lim, madaniyat, sport va turizm yo‘nalishlarida hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha tashabbuslar ilgari surildi. Madaniyat kunlari, kino, teatr va musiqa festivallarini birgalikda o‘tkazish hamda sport federatsiyalari o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalarni rivojlantirishga kelishib olindi.

Tartibli mehnat migratsiyasi masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Serbiya tomoni ushbu sohada tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga qiziqishi yuqori ekanini qayd etildi. Prezidentlar tashrif doirasida Mehnat mobilligi va migratsiyasi to‘g‘risidagi bitim qabul qilinishini olqishladilar.

Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar, jumladan, ko‘p tomonlama tuzilmalar doirasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlash yuzasidan ham atroflicha fikr almashildi.

Erishilgan kelishuvlar, qabul qilingan qaror va bitimlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida keng qamrovli “yo‘l xaritasi” qabul qilindi.

Belgrad shahrida bo‘lib o‘tgan muzokaralar yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich Strategik sheriklik munosabatlarni o‘rnatish to‘g‘risida qo‘shma deklaratsiyani imzoladilar.

Davlat rahbarlari huzurida ikki tomonlama hujjatlar almashildi, jumladan:

- Mehnat mobilligi va migratsiyasi to‘g‘risida;
- Avtomobil transportida yo‘lovchi va yuklarni xalqaro tashish to‘g‘risida;
- Hududlararo hamkorlik to‘g‘risida;
- Qishloq va suv xo‘jaligi hamda qishloq joylarni barqaror rivojlantirish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;
- Bojxona ishlarida hamkorlik va o‘zaro yordam to‘g‘risida;
- Erkin savdo to‘g‘risidagi bitim bo‘yicha muzokaralarni boshlash uchun ishchi guruh tuzish to‘g‘risida;
- Qayta tiklanuvchi energetika va “yashil” texnologiyalar sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;
- Farmatsevtika va biotexnologiyalar sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;
- Turizm va madaniy safarlar sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;
- O‘rta yo‘lakni qo‘llab-quvvatlash borasidagi hamkorlik to‘g‘risida;
- Temir yo‘l infratuzilmasi sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;

— Iqtisodiy diplomatiya sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;

— Kinematografiya sohasida hamkorlik qilish va qo‘shma filmlar ishlab chiqarish to‘g‘risida;

— 2026-2028-yillarda madaniyat sohasida hamkorlik to‘g‘risida;

— Mehnat xavfsizligi va sog‘liqni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;

— Nogironligi bo‘lgan shaxslarni himoya qilish va ularning jamiyatdagi mavqeiini qo‘llab-quvvatlash sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;

— Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;

— Raqamlashtirish, elektron hukumat va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;

— Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;

— Samarqand viloyati va Voyevodina avtonom o‘lkasi o‘rtasida sheriklik munosabatlarni o‘rnatish to‘g‘risida.

Belgrad shahridagi tadbirlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Serbiyaning oliy davlat mukofoti — Katta zanjirli Serbiya Respublikasi ordeni bilan taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Mamlakatlar o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni mustahkamlashga qo‘shgan ulkan hisssasi uchun davlatimiz rahbariga ushbu ordeni Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchich topshirdi.

Davlatimiz rahbari yuksak mukofot uchun chuqur minnatdorlik bildirib, uni Serbiya xalqining O‘zbekistonga bo‘lgan yuksak hurmati, mustahkamlanib borayotgan do‘stlik va ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirishga qat‘iy intilish ramzi deb bilishini ta’kidladi.

Serbiya Respublikasi ordeni xorijiy davlatlarning taniqli arboblarga xalqlar o‘rtasida tinchlik, hamkorlik va o‘zaro anglashuvni mustahkamlash hamda respublika bilan do‘stona aloqalarni rivojlantirishga qo‘shgan ulkan hisssasi uchun beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Serbiyaga rasmiy tashrifi doirasidagi tadbirlarning navbatdagisi Belgrad ko‘chalaridan biriga Toshkent nomini berish marosimi bo‘ldi.

Yetakchilar mazkur qaror bugun strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilgan O‘zbekiston — Serbiya ko‘p qirrali munosabatlaring

jadali rivojlanib borayotganining ifodasi ekanini ta’kidladilar.

Toshkent ko‘chasi xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va mehr-oqibat rishtalarini yanada mustahkamlashga qat‘iy intilishning yorqin ramziga aylanishiga ishonch bildirildi.

So‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich qo‘shma biznes forumida ishtirok etdilar.

Tadbirda ikki mamlakatning 200 nafardan ziyod rasmiy va ishbiarmon doira vakillari, yetakchi sanoat va savdo korxonalari rahbarlari, xususan, Serbiyaning “Galenika”, “AbelaPharm”, “Gosa FOM”, “YUMCO”, “Luss Textile” kabi kompaniyalari qatnashdi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida samarali o‘tgan oliy darajadagi muzokaralar ikki tomonlama aloqalarda yangi sahifa ochganini ta’kidladi. O‘zbekiston va Serbiya o‘rtasida strategik sheriklik munosabatlari o‘rnatilgan asosiy natija bo‘ldi.

O‘zaro yetkazib beriladigan mahsulotlar turini kengaytirish va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish hisobiga o‘zaro savdo hajmini bir necha barobar oshirish bo‘yicha marra belgilangan. Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish maqsadida 2026-2028-yillarga mo‘ljallangan qo‘shma harakatlar rejasini qabul qilindi.

O‘zbekiston Prezidenti iqtisodiy sheriklikni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tdi. To‘qimachilik va elektrotexnika mahsulotlari, avtomobil va sanoat butlovchi qismlarini birgalikda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, farmatsevtika preparatlarini mahalliyashtirish, mevasabzavot mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, dasturiy ta‘minot va sun‘iy intellekt sohaslarida loyihalarni amalga oshirish shular jumlasidan.

Mamlakatimiz yetakchisi Serbiya biznesi uchun yurtimizda qulay investitsiya va ishbiarmonlik muhitini yaratishga hamda har bir qo‘shma loyihani amalga oshirishda amaliy ko‘mak ko‘rsatishga tayyorligini bildirdi.

Yakunda qator ikki tomonlama iqtisodiy bitimlar va savdo shartnomalari imzolandi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Serbiyaga rasmiy tashrifi yakunlandi. Belgrad shahridagi Nikola Tesla nomidagi xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonlarni Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich va rafiqasi kuzatib qo‘ydi.

O‘ZA



O‘ZBEKISTON – SERBIYA: YANGI STRATEGIK MAQSADLAR SARI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 7-8-sentabr kunlari Serbiya Respublikasiga amaliy mazmunga boy rasmiy tashrifi ikki davlat munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqish, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish hamda O‘zbekistonning Yevropa bilan aloqalarini yanada diversifikatsiyalash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etdi.

Belgrad shahridagi tadbirlar doirasida mamlakatlar o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni mustahkamlashga qo‘shgan ulkan hisssasi uchun davlatimiz rahbarini Serbiyaning oliy davlat mukofoti —

Katta zanjirli Serbiya Respublikasi ordeni bilan taqdirlanishi tashrifga o‘zgacha shukuh bag‘ishladi.



Davomi 2-betda

BIZ BUGUN KECHAGIDAN KUCHLIMIZ

Ertaga bundan ham kuchli bo‘lamiz

Istiqlol ne‘mati tufayli yurtimizda nafaqat davlat va jamiyat hayotida ulkan o‘zgarishlar ro‘yo berdi, balki xalqimizning ma‘naviy dunyosi, milliy va diniy qadriyatlariga munosabatida ham yangi davr boshlandi.

Mustaqillikning 35 yilligi xalqimizning istiqlol yillaridagi fidokorona mehnati, ulkan irodasi va bunyodkorlik salohiyati bilan bosib o‘tilgan murakkab va sharaflı taraqqiyot yo‘lini sarhisob qilish, erishilgan natijalarni yanada chuqur anglash va kelgusi maralarni belgilash uchun muhim tarixiy palladir.

Zero, mustaqillik bizga, avvalo, o‘zligimizni anglash, milliy g‘ururimizni tiklash, shonu sharafimizni yuksaltirish, dinimiz, ona tilimiz va asriy qadriyatlarimizni e‘zozlash imkonini berdi. Bugungi kunda esa biz aynan erkin va farovon hayot, tinchlik va osoyishtalik, inson huquq va erkinliklari, vijdon erkinligi hamda diniy bag‘rikenglik kabi yuksak qadriyatlarni yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim asoslari sifatida ko‘rmoqdamiz.



Inson qadri ulug‘langan yurt

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, mustaqillikning buyuk ahamiyati, avvalo, inson qadri va erkin hayotida namoyon bo‘ladi. Shu ma’nodan, so‘nggi yillardagi islohotlarning bosh maqsadi

insonning huquq va manfaatlarini ta’minlash, munosib hayot kechirishi uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilmoqda.

“Inson qadri uchun!” degan ezgu g‘oya davlat siyosatining markaziga chiqarildi. Ilgari odamlarni yillar davomida qiynab kelgan qator muammolarga barham berildi.

Eng muhimi, jamiyatda ishonch va xotirjamlik ustuvorlik kasb etmoqda. Bu esa inson qadriini ulug‘lashga asoslangan yangi O‘zbekiston g‘oyasining amaliy ifodasidir.



Davomi 3-betda



Ulug'bek INOYATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasidagi fraksiya rahbari

Vatanimiz istiqlolining 35 yillik shodiyonasi bu safar ham milliy jipsligimiz va hamjihatligimizni yangi bosqichga olib chiqdi. Xalqimiz bu yilgi bayram tantanasidagi jo'shqin va ulug'vor dasturlarga Yangi Toshkent hududida barpo etilgan muhtasham maydonda guvoh bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining bayram nuqtida yaqin yillarda xalqimizning farovon va baxtli hayotini ta'minlashga qaratilgan, Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladigan o'ziga xos "yo'l xaritasi" bilan tanishdik. Uning hayotiyli, har yoshga, jamiyatning har bir qatlamiga moslangan, qalblardagi niyatlarni haqiqatga aylantiradigan, inson qadrini ulug'lashga xizmat qiladigan rejalardan iboratligini hisobga olib, hayotiy dastur deiyish mumkin.

Nutqda odamlarning roziligi, kuchli ijtimoiy himoya va inson qadri eng oliy o'ringa qo'yildi. Avvalo, tizimli islohotlar tufayli 2026-yil boshida mamlakatda 5,8 foizni tashkil etgan kambag'allik darajasi bugunga kelib 3,9 foizga tushgani qayd etildi. Mazkur raqamlar ortida millionlab oilalarning ro'zg'origa baraka kirib, turmush sifati yaxshilanganini anglash mumkin.

So'nggi bir necha yilda ijtimoiy himoya tizimi tubdan isloh qilindi, "ijtimoiy davlat" tamoyillariga moslashish bo'yicha jiddiy qadamlar qo'yildi.

Birinch navbatda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada "ijtimoiy davlat" maqomi mustahkamlandi. Bosh qonunimizda mamlakatimizning "ijtimoiy davlat" deb e'lon qilinishi shunchaki chiroyli so'zlar emas, balki har bir fuqaro hayotiga bevosita ta'sir qiluvchi muhim kafolatdir. Natijada davlatning ijtimoiy majburiyatlariga oid

Davlatimiz rahbari 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini 300 milliard dollarga yetkazish, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 10 ming dollardan oshirish, sanoatda 2 millionta yuqori daromadli ish o'rni ochish vazifasini ham qo'ydi. Bu raqamlar ortida yuz minglab oilalarning farovonligi, yoshlarimizning munosib ish bilan ta'minlanishi turibdi. Iqtisodiy o'sish bilan birga, ijtimoiy uy-joylar qurilishi va ijtimoiy xizmatlar sifatining oshirilishi Xalq demokratik partiyasi a'zolari va xayrixohlari faol qo'llab-quvvatlaydigan katta qadamdir.

me'yorlari 3 barobar ko'paydi. Ijtimoiy davlat tamoyilining asl mazmuni va ahamiyatini inson va uning qadri birinchi o'ringa ko'tarilganida, ya'ni davlatning bosh maqsadi har bir fuqaroga munosib hayot sharoitini yaratib berishi va davlat organlari xalqqa xizmat qilishi shartligi belgilanganida ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, pensionerlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, ehtiyojmand oilalar va yetim bolalar davlat tomonidan alohida e'tibor va moliyaviy qo'llab-quvvatlov bilan qamrab olinishi kafolatlandi.

Eng muhimi, tayinlanadigan pensiya va nafaqalar miqdori rasmiy belgilangan minimal iste'mol xarajatidan eng bo'lishi mumkin emas degan tamoyil belgilandi.

Ikkinchi yirik qadam Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishidir. Ilgari ijtimoiy xizmatlar 6 ta vazirlik va idora o'rtasida tarqoq bo'lgan. Ya'ni yordamga muhtoj odam qanday holatda kimga yoki qaysi tashkilotga murojaat qilishini aniq bilmasdi.

Prezidentimizning Serbiyaga tashrifi oliy darajada tashkil etilgani Toshkent va Belgrad o'rtasidagi siyosiy ishonch mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.



Mustaqillik shodiyonasi xalqni umumiy maqsadlar atrofida birlashtiruvchi eng aziz bayram. Yillarki, O'zbekiston xalqi mustaqilligining har yangi ayyomida o'tgan davrni yodga oladi, ulug'larni eslaydi. Kelgusidagi katta maqsadlar yo'lida ruhan yanada birlashadi va yangi rejalar tuzadi.

Yo'lga qo'yilgan yangi tizim barcha ijtimoiy mas'uliyatni yagona vakolatli organga birlashtirdi. Natijada tarqoqlikka chek qo'yilib, tizimli boshqaruv instituti shakllandi. Endi har bir fuqaro — u pensionermi, ehtiyojmand oila vakilimi, yolg'iz ayol yoki boquvchisini yo'qotgan bolalarni — hammaning murojaat qiladigan manzili ham, ularga manzilli yordam beradigan tizim ham aniq.

Hozir agentlikning "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari va mahallalardagi ijtimoiy xodimlari orqali yordamga muhtoj insonlar aniqlanib, ularga alohida individual dasturlar asosida yordam ko'rsatilmoqda.

"Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ning to'liq joriy etilishi bu boradagi uchinchi katta qadam bo'ldi. Ijtimoiy davlatchilikni mustahkamlashda nafaqa hamda moddiy yordam tayinlash jarayonida inson omili va byurokratiyani kamaytirish uchun sohani raqamlashtirish juda muhim vazifalardan biri etib belgilandi. Shu maqsadda "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" joriy etildi. Bu davlat tomonidan yordamga muhtoj oilalar va fuqarolarni aniqlash hamda ularga ijtimoiy nafaqa va yordamlarni tayinlaydigan yagona elektron axborot tizimidir. Ilgari moddiy yordam yoki bolalar nafaqasi olish uchun ko'plab tashkilotlardan ma'lumotnoma yig'ish talab qilinardi. Mazkur tizim esa inson omilisiz, barcha ma'lumotni elektron tarzda avtomatik tekshiradi va haqiqiy muhtoj oilalarni belgilaydi. Ularga manzilli ravishda, inson omili aralashuvvisz ijtimoiy yordamlar taqsimlanadi. Bu orqali keyingi yillarda davlat byudjetidan ijtimoiy himoyaga

ayollarni ishga olishga rag'batni kuchaytirdi. Eng muhimi, "dekret pullari" inson omili ishtirokisiz, elektron tizim orqali fuqaroning bank kartasiga to'g'ridan to'g'ri o'tkazib beriladigan shaffof mexanizm yaratildi. Ushbu islohot ham "ijtimoiy davlat" tamoyilining yana bir amaliy ko'rinishi bo'lib, davlat ayollarning onalik huquqini va mehnat kafolatini o'z zimmasiga olganini anglatadi.

Shuningdek, ijtimoiy yordamlarning manzilliligini ta'minlash maqsadida ijtimoiy daftarlar tizimi yo'lga qo'yildi. Bu yurtimizda manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish va kambag'allikni qisqartirish uchun joriy etilgan maxsus elektron tizim bo'lib, u orqali aholining muhtoj qatlamlari aniqlanib, yordam ko'rsatilmoqda.

Asosiysi, tizim orqali moddiy yordam yoki xizmat olish uchun oylab hujjat yig'ish talab qilinardi. Uning o'rni "mahalla yettligi" xonadonbay yurib, sog'lig'ida muammosi borlar, ishsizlar, boquvchisini yo'qotganlar, davalanish va jarrohlik amaliyoti xarajatini qoplashga muhtojlar, yoshlarning kontrakt to'lovini to'lab berishdan tortib, haydovchilik va kasb-hunar kurslarida bepul o'qitishgacha bo'lgan ehtiyojmandlarni toifalariga qarab daftarlarga kiritadi.

Bir so'z bilan aytganda, maqsad faqat "pul berish" emas, balki insonni kasb-hunarga o'rgatish, imtiyozli kredit va subsidiyalor orqali ish bilan ta'minlash hamda o'z daromadiga ega qilishdir. Ya'ni ijtimoiy yordamni faqat moddiy qo'llab-quvvatlovchi mexanizm emas, balki insonni og'ir vaziyatdan olib chiqish tizimiga



aylantirish maqsad qilingan.

Ijtimoiy daftarlar "davlat hech bir fuqarosini muammosi bilan yolg'iz qoldirmaydi" degan tamoyilni amalda ta'minlab, odamlarning oyoqqa turib olishi uchun imkoniyat beryapti.

Davlatimiz rahbari ana shu ishlarga qisqacha to'xtalar ekan, xalqimiz hayotini tubdan yaxshilaydigan yangi 7 ta milliy dastur amalga oshirilishini ma'lum qildi.

Birinch dastur bilan bilim va malakani kelgusi taraqqiyotimizning asosiy kapitaliga aylantirish maqsad qilingan. Bilim va malaka yangi renessans poydevori va milliy taraqqiyotning bosh kapitalidir. Bugun shiddat bilan o'zgarayotgan dunyo sahnasi ham davlatning qudratini belgilovchi asosiy mezon uning tabiiy boyliklari, xomashyosi yoki moddiy resurslari emas, balki aynan inson omili, uning intellektual salohiyati va zamonaviy malakasi ekanini ko'rsatmoqda.

Bu shunchaki islohot emas. Bu — millat tafakkurini tubdan o'zgartiradigan, yangi O'zbekistonning Uchinchi Renessans poydevorini quradigan tarixiy va umummilliy harakatning boshlanishi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiya-si uchun ta'lim nafaqat bilim berish tizimi, balki huquqlar va imkoniyatlar tengligini ta'minlash, har bir inson uchun munosib hayot kechirish imkoniyatini yaratishning eng muhim vositasidir. Shu bois, biz mamlakatimizda har bir bolaning, uning yashash joyi, oilasining moddiy ahvoli va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, sifatlari ta'lim olishi uchun teng imkoniyatlar yaratilishi lozim, deb hisoblaymiz.

Bunda, avvalo, bolalarning 6 yoshli tayyorlov guruhlariga qamrovni 100 foizga

yetkazish muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki bolaning maktabga qay darajada tayyor kirib kelishi uning ta'limdagi keyingi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, chekka va olis hududlarda, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlari uchun maktabgacha tayyorlov tizimining to'liq joriy etilishi katta ahamiyatga ega.

Dasturda texnikumlarda ham xalqaro ta'lim standartlari joriy etilib, yoshlarni zamonaviy mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish tizimini kengaytirish vazifasiga alohida to'xtalib o'tildi. Bu orqali qamrovni 1 millionga yetkazish ko'zda tutilmoqda. Endi kasb-hunar ta'limida nazariya bilan birga amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ustuvor ahamiyat beriladi. Natijada yoshlarda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb, amaliy malaka va o'z mehnati bilan munosib daromad topish imkoniyati kengayadi.

Yangi O'zbekistonda kasb egallamagan birorta yigit-qiz qolmasligi, har bir yosh o'z qobiliyati va qiziqishiga mos bilim va kasb tanlashi, shu orqali munosib hayot qurish imkoniyatiga ega bo'lishi maqsad qilingan. Shuningdek, milliy dasturdagi xalq salomatligini mustahkamlash va bu borada katta ahamiyatga ega tibbiy sug'urta xizmatini ommalashtirish bo'yicha ham aniq rejalar ma'lum qilindi.

Tibbiy sug'urtaning ommalashishi har bir fuqaroga, uning ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, zamonaviy tibbiyot xizmatlaridan to'siqsarsiz va oqitqcha xarajatsiz foydalanish imkoniyatini beradi. Bu esa tibbiyotda shaffoflikni ta'minlash, soha xodimlari mas'uliyatini oshirish va eng muhimi, inson qadrini ulug'lash yo'lidagi eng qat'iy qadamdir. Xalq salomatligi yo'lidagi bu ezuq rejalar yurtimizda sog'lom jamiyat barpo etishning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi. Dasturdagi mazkur rejalar "har bir inson uchun sifatlari va bepul tibbiyot" qoidasini hayotimizga tatbiq etishda katta yordam beradi.

Iqtisodiyotimizni yuqori texnologiya va mehnat unumdorligi modeliga o'tkazish tashabbusi maqsadimiz faqat miqdor emas, balki sifat ekanini ko'rsatadi. Ilgari iqtisodiy o'sish ko'proq yangi korxonalar ochish va ishchi kuchini ko'paytirish hisobiga bo'lgan bo'lsa, yangi modelda mavjud resurslardan oqilona foydalanish va mehnat unumdorligini keskin oshirish bosh vazifa etib belgilanmoqda.

Shuningdek, mahallani jamiyat taraqqiyotining asosiy buyurtmachisiga aylantirish ham ayni kutilgan tashabbus bo'ldi. Mazkur harakat bilan endi mahalliy byudjet va loyihalarni yuqoridan emas, aynan ehtiyojmand oilalarning talab va takliflaridan kelib chiqib qizishilash mumkin. Bu ijtimoiy tenglik, davlatning xalqimiz oldidagi mas'uliyatini yanada oshirish bo'lgaylari o'ta muhim ekanini yana bir bor isbotlaydi.

Davlatimiz rahbari 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini 300 milliard dollarga yetkazish, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 10 ming dollardan oshirish, sanoatda 2 millionta yuqori daromadli ish o'rni ochish vazifasini ham qo'ydi. Bu raqamlar ortida yuz minglab oilalarning farovonligi, yoshlarimizning munosib ish bilan ta'minlanishi turibdi. Iqtisodiy o'sish bilan birga ijtimoiy uy-joylar qurilishi va ijtimoiy xizmatlar sifatining oshirilishi Xalq demokratik partiyasi a'zolari va xayrixohlari faol qo'llab-quvvatlaydigan katta qadamdir.

Endi davlat dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha yondashuv butkul o'zgaradi. Tuman byudjeti, investitsiya dasturi hamda infratuzilma loyihalari mahalla buyurtmasi asosida ishlab chiqiladi. Bunda fuqarolarning talabi va ehtiyoji, mahallaning farovonligi eng asosiy mezon sifatida belgilanadi.

Xalqimiz jips ekan, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, ham siyosiy jihatdan, albatta, yanada qudratli bo'lamiz. Parlamentdagi va mahalliy kengashlardagi deputatlarimiz, faollar va fidoyilarimiz bilan birga xalqimiz manfaatlarini himoya qilish yo'lida siddiqdildan xizmat qilishga tayyormiz.



O'ZBEKISTON – SERBIYA: YANGI STRATEGIK MAQSADLAR SARI

Boshlanishi 1-betda

Ushbu ehtirom tashrif doirasidagi kelgusi tadbirlar ko'tarinki ruh, jonli, ishonchli, yanada manfaatli hamda tarixiy kelishuv va shartnomalarga boy bo'lishi uchun o'ziga xos debocha vazifasini o'tadi.

Tashrif davomida Belgraddagi "Serbiya" saroyida ikki mamlakat rahbarining yuzma-yuz va rasmiy delegatsiyalar ishtirokidagi muzokaralari bo'lib o'tdi. Ularda transport va logistika, yengil va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, tibbiyot va raqamli iqtisodiyot kabi ustuvor yo'nalishlarda yangi qo'shma loyihalar masalalari ko'rib chiqildi. Barcha kelishuvlarni sifatli amalga oshirish maqsadida 2026-2028-yillarga mo'ljallangan sanoatda sheriklikni rivojlantirish bo'yicha qo'shma harakatlar rejasini qabul qilindi. Ushbu hujjat kelgusi loyihalarni tizimli bajarishni kafolatlaydi. Shuningdek, muzokaralar davomida Samarqand viloyati va Voyevodina hamda Samarqand va Novi-Sad shaharlari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri hamkorlik aloqalari o'rnatildi. O'zaro kelishuvlarning manzilliligi, ya'ni hududlararo hamkorlik ham yo'lga qo'yilishi qo'shma loyihalar hayotga tezroq tatbiq etilishiga xizmat qiladi.

Bugun dunyodagi siyosiy jarayonlar ko'rsatmoqdaki, davlatlar o'rtasidagi munosabatlar barqarorligi faqat rasmiy uchrashuvlar va diplomatik bayonotlar emas, balki ularning odamlar va iqtisodiyot uchun qanday amaliy natija berayotgani bilan ham o'lchanmoqda. Yangi bozorlarga chiqish, investitsiya jalb qilish, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish, ish o'rnlari yaratish va ishonchli transport yo'l-larini shakllantirish har bir mamlakat uchun tobora ahamiyatli bo'lib boryapti. Shu ma'noda, O'zbekiston Prezidentining Serbiyaga tashrifi ikki davlat o'rtasidagi mavjud siyosiy muloqotni aniq iqtisodiy loyihalarni, yangi hamkorlik imkoniyatlarini va xalqlar manfaatiga xizmat qiladigan amaliy tashabbuslar bilan boyitishga qaratilgani bilan muhimdir.

Siyosiy muloqotdan amaliy sheriklik sari

Serbiya O'zbekiston uchun Janubi-sharqiy Yevropa mintaqasidagi muhim hamkorlardan biriga aylanish imkoniyatiga ega. O'zbekistonning tashqi siyosatida so'ngi yillarda shakllangan ochiqlik, o'zaro manfaatdorlik va pragmatizm tamoyillari mamlakatning Yevropa davlatlari bilan munosabatlarida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Prezidentimizning Serbiyaga tashrifi oliy darajada tashkil etilgani Toshkent va Belgrad o'rtasidagi siyosiy ishonch mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.

Ikki mamlakat rasmiylari va ishbilarmon doiralari ishtirokida biznes forum o'tkazilishi esa siyosiy muloqotni aniq iqtisodiy loyihalar bilan uyq'unlashtirishga bo'lgan intilishdan dalolat beradi.

Shuningdek, tashrifda qayd etilganidek, O'zbekiston Belgrad shahrida bo'lib o'tadigan "EXPO – 2027" xalqaro ko'rgazmasida milliy pavilyonni bilan faol ishtirok etishi ikki mamlakat tadbirkorlari o'zaro ish birligini yaratishi uchun jonli platforma vazifasini bajaradi.

O'zbekiston va Serbiya o'rtasida savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish tashrif kun tartibining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Transport, mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika va axborot texnologiyalari kabi sohalarda qo'shma loyihalarni amalga oshirish borasidagi imzolangan kelishuv va shartnomalar ijrosi hamkorlikning xomashyo yoki oddiy tovar ayirboshlashdan yuqori qo'shilgan qiymatga ega ishlab chiqarish va innovatsion tarmoqlarga o'tishi uchun imkoniyat yaratadi.

Ayniqsa, mashinasozlik, farmatsevtika va axborot texnologiyalari sohalarida hamkorlik O'zbekiston iqtisodiyotini

modernizatsiyalash, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish va eksport salohiyatini oshirish nuqtayi nazaridan istiqbolli yo'nalishlardir.

Biznes forum o'tkazilishi xususiy sektor va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri hamkorlikni kuchaytirish uchun yangi maydon yaratadi. Bu esa davlatlararo kelishuvlar real investitsiya loyihalariga aylanishi uchun muhim platformadir.

Mehnat migratsiyasi: inson kapitaliga investitsiya

Tashrif kun tartibidan tartibli mehnat migratsiyasi sohasida hamkorlikni yo'lga qo'yish masalasi o'rinda oldi. Mehnat migratsiyasini institutsional asosda tartibga solish, avvalo, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, qonuniy mehnat kanallarini kengaytirish, kasbiy malakalarni tan olish va mehnat bozori ehtiyojlariga mos mexanizmlarni shakllantirish imkonini beradi. Zero, bugun mehnat migratsiyasi oddiy ishchi kuchi harakati emas, balki inson kapitali, kasbiy ko'nikmalar va davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning muhim elementiga aylanmoqda. Serbiya O'zbekiston bilan bu sohadagi hamkorlikka katta qiziqish bildirdi. Ikki mamlakat o'rtasida Mehnat mobilligi va migratsiya to'g'risidagi bitim qabul qilingani buning yaqqol isbotidir.

O'zbekiston—Serbiya munosabatlarining muhim yo'nalishi hududlararo va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishdir. Davlatlararo munosabatlar barqarorligi faqat yuqori darajadagi siyosiy muloqot bilan emas, balki jamiyatlar, hududlar, ta'lim va madaniyat muassasalari o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri aloqalar bilan ham ta'minlanadi.

Shu nuqtayi nazardan, hududlararo hamkorlikni kuchaytirish ikki mamlakat viloyatlari va shaharlari o'rtasida savdo, investitsiya, turizm, ta'lim va madaniy loyihalarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochishi mumkin.

O'zbekiston tashqi siyosatida Serbiya omili

Mazkur tashrifni kengroq geosiyosiy nuqtayi nazardan baholaydigan bo'lsak, u O'zbekistonning ko'p vektorli va pragmatik tashqi siyosatining mantiqiy davomi sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi global siyosiy tizimda davlatlar o'z tashqi iqtisodiy va diplomatik aloqalarini diversifikatsiya qilishga intilmoqda. O'zbekiston ham Yevropa, Osiyo va boshqa mintaqalar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish orqali tashqi siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirib bormoqda.

Serbiya bilan aloqalar rivoji ana shu jarayonda O'zbekiston uchun Janubi-sharqiy Yevropa yo'nalishini yanada faollashtirish imkonini beradi.

Prezidentimizning Serbiyaga tashrifi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarini yangi mazmun bilan boyitish uchun muhim siyosiy va iqtisodiy imkoniyat yaratadi. Belgrad shahrida bo'lib o'tgan muzokaralar yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich Strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risida qo'shma deklaratsiyani imzolash O'zbekiston — Serbiya munosabatlarining yangi bosqichini boshlab beradi.

Eng muhimi, bu tashrif O'zbekistonning Yevropa bilan hamkorlik geografiyasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarini diversifikatsiyalash va milliy manfaatlarga asoslangan ochiq hamda pragmatik tashqi siyosatini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

**Go'zal SA'DIYEVA,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi
akademiyasi dotsenti**



YERGA MUNOSABAT O'ZGARSA,

IQTISODIYOTDA NATIJA O'ZGARADI



Nuriddin AZIZOV,
Makroiqtisodiy va hududiy
tadqiqotlar instituti
Yer islohotlari markazi yetakchi
mutaxassisi

Bu, o'z navbatida, tadbirkorlik uchun yaratilayotgan muhitga ham yangi talab qo'yimoqda. Ilgari asosiy maqsad biznesni boshlashga sharoit yaratish bo'lgan bo'lsa, endi uning tez o'sishi, yangi quvvatlar yaratishi va hudud iqtisodiyotiga kuchli turtki berishi uchun zarur muhitni shakllantirish muhim. 18-avgust kuni davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida ko'tarilgan masalalarni ham ana shu yangi bosqich nuqtayi nazaridan baholash lozim.

Besh yil avval tadbirkorlar bilan ochiq muloqotlar yo'lga qo'yilganidan buyon biznes rivojiga to'siq bo'lgan minglab masalalar bo'yicha 84 ta qonun, 861 ta farmon va qaror qabul qilindi. Shu davrda biznes uchun ajratilgan kredit portfeli qariyb uch karra oshib, 450 trillion so'mga yetdi, korxonalarning asosiy kapitalga investitsiyalari uch barobar ko'paydi. Bu jarayonning hayotdagi ifodasi esa ishga tushgan korxonalar, yaratilgan ish o'rinlari va kengaygan ishlab chiqarish quvvatlarida ko'rinadi.

Eng muhimi, iqtisodiy faollikning geografiyasi o'zgarmayotgan. Sanoatdagi ulushi 100 million dollardan oshgan tumanlar soni 66 tadan 116 taga, xizmatlar hajmi 1 trillion so'mdan oshgan tumanlar 41 tadan 152 taga yetdi. Xalqaro marketpleyslar bilan ishlayotgan korxonalar 3,5 mingga, biznesni mahallada boshlab, keyinchalik filiallar tashkil etgan tadbirkorlar 550 taga, milliy brendini yaratganlar esa 300 tadan oshdi. Iqtisodiy faollik xaritada qancha kengaysa, uning yerga ehtiyoji shuncha ortadi. Demak, tadbirkorlik geografiyasi kengayishi yer siyosatiga ham yangi talab qo'yimoqda.

Bu yerda masalaning yana bir muhim jihati bor. Tadbirkor yerni olgan kuni loyiha ishga tushib qolmaydi. Yerni auksionda qo'lga kiritish jarayonning yakuni emas, aksincha, qurilish, loyihalash, infratuzilma qurilish va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishning boshlanishidir. Agar shu bosqichlar cho'zilsa, tadbirkorning mablag'i ham kutadi, ish o'rni ham kechikadi, ishlab chiqarish ham orqaga suriladi. Bugun iqtisodiyotda har bir kunning qiymati ortib borayotgan bir sharoitda yerni olish bilan loyihani ishga tushirish o'rtasidagi vaqt ham iqtisodiy resursga aylanmoqda.

Shu bois, tadbirkor uchun yerni qo'lga kiritish katta yo'lining boshlanishidir. Bu



Davlat aktivini xususiy sektorga o'tkazishning mohiyati shu yerda namoyon bo'ladi. Obyektning kimgadir sotilishi bilan jarayon tugamaydi. Eng muhim natija uning keyingi hayotida — ishlab chiqarish boshlanishida, xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilishida, yangi ish o'rinlari yaratilishida ko'rinadi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

iqtisodiyotga kerak bo'lgan resursni harakatsiz holatda ushlab tutmaslik. Yer auksionidan keyin ishga tushishi, davlat mulki xususiy sektor qo'lida yangi qiymat yaratishi, tadbirkorning sarmoyasi esa imkon qadar tez ishlay boshlashi kerak. Bugungi islohotlarning iqtisodiy mazmuni ham tobora shu mezon bilan o'lchanmoqda.

Demak, bugungi vazifa yer va boshqa iqtisodiy resurslarni harakatga keltirish bilan cheklanmaydi. Ularning qanday ishlayotganini, loyihalar qay darajada amalga oshirilayotgani va ajratilgan resurs qanday natija berayotganini aniq ko'rib borish kerak. Bu esa yer munosabatlarda raqamli texnologiyalar ahamiyatini yanada oshiradi.

Bugun sun'iy intellekt va zamonaviy raqamli texnologiyalar hayotimizning ko'plab sohalariga kirib kelayotgan bir paytda yerdan foydalanish tizimi ham bu jarayondan chetda qolmasligi

kerak. Ochiq muloqotda keltirilgan raqamlar bu imkoniyatning iqtisodiy samarasini ko'rsatadi. Sun'iy intellektidan foydalangan korxonalarining 54 foizida mahsulotga talab keskin oshgan, 25 foizida tannarx sezilarli kamaygan, 40 foizida daromad o'sgani hisobiga ishchilarning oyiligi 10 foizdan yuqori ko'tarilgan.

Shu asosda "10 ming korxona uchun — sun'iy intellekt hamkor" dasturini yo'lga qo'yish taklif etildi. Dastur doirasida sun'iy intellektni joriy etish xarajalarining 50 foizini kompensatsiya qilish, yangi mahsulotlar uchun sun'iy intellekt modellari yaratishda superkompyuter imkoniyatlaridan bepul foydalanish imkonini berish ko'zda tutilmoqda. Bu maqsadlar uchun dastlabki bosqichda 100 million dollar ajratilishi belgilangan.

Masalan, sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari va sun'iy intellekt yordamida foydalanilmayotgan yerlarni aniqlash, ekinlar holatini baholash, yer degradatsiyasini kuzatish mumkin. Auksionda sotilgan yer bo'yicha esa "tadbirkor qurilishni boshladimi", "loyiha belgilangan sur'atda ketyaptimi", "obyekt ishga tushdimi" kabi jarayonlarni masofadan kuzatish imkoniyati kengayadi.

Raqamlashtirishning eng muhim jihati nazoratning o'zi maqsad bo'lib qolmasligidir. Texnologiya orqali to'plangan ma'lumot keyingi qarorlar uchun iqtisodiy asosga aylanadi. Raqamli tizim qaysi hududda yer tezroq o'zlashtirilayotgani, qaysi loyihalar ko'proq investitsiya jalb qilayotgani, qaysi yerlar uzoq vaqt ishga tushmay turgani va qaysi hududda yerdan foydalanish yuqori qiymat yaratayotganini aniq ko'rsatib beradi.

Shu ma'noda, kelajakda raqamli kadastrni faqat yerning qayerda joylashgani va kimga tegishli ekanini ko'rsatadigan ma'lumotlar bazasi sifatida tasavvur qilish yetarli bo'lmaydi. U yerning iqtisodiy hayotini ham ko'rsatadigan tizimga aylanishi mumkin. Yer qachon auksionga chiqarildi, qanchaga sotildi, unga qancha investitsiya kiritildi, nechta ish o'rni yaratildi, qancha mahsulot ishlab chiqarildi — bularning barchasi yagona raqamli manzarda aks etsa, yer siyosati ham aniq ma'lumotlarga tayanadi.

Raqamlar yerdan foydalanish jarayonini ko'rish imkonini bersa, endi navbat ularni iqtisodiy natija bilan bog'lashga keladi. Chunki mamlakat taraqqiyoti oldiga qo'yilayotgan katta maqsadlar har bir resursdan samarali foydalanishni talab qiladi. Ochiq muloqotda 2026-yilda yalpi ichki mahsulotni 180 milliard dollardan, eksportni 40 milliard dollardan oshirish vazifasi belgilandi.

Bunday maqsadlarga erishishda investitsiya, sanoat, eksport, texnologiya va inson kapitali bilan bir qatorda yer resurslaridan qanday foydalanilayotgani ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yangi korxona uchun yer ishlab chiqarish maydoni, investor uchun kapital qo'yilmasi, hudud uchun yangi ish o'rni va daromad manbai, davlat uchun esa iqtisodiy o'sishning bir qismiga aylanadigan resursdir.

Shu nuqtayi nazaridan, yer islohotlarining keyingi bosqichida auksionning o'ziga e'tibor qaratish bilan cheklanib qolish yetarli bo'lmaydi. Yer qanchaga sotilgani muhim, lekin undan keyin unga qancha investitsiya kiritilgani, qancha ish o'rni yaratilgani, qanday mahsulot ishlab chiqarilgani, qancha eksport qilindigani va hudud iqtisodiyotiga qanday hissa qo'shilgani yanada muhim natijadir.

Buning uchun yerdan foydalanish samaradorligini baholaydigan aniq mezonlar tizimi shakllanishi mumkin. Yer maydoniga to'g'ri keladigan investitsiya hajmi, yaratilgan ish o'rinlari, ishlab chiqarish qiymati, eksport tushumi, byudjerga tushgan mablag' kabi ko'rsatkichlar yerning iqtisodiy qaytimini baholashda muhim asos bo'ladi. Bunday yondashuv qaysi hududda qaysi loyihalar samarali ishlayotganini, qaysi yerlar yuqori qiymat yaratayotganini ko'rsatib beradi.

Shunda yer siyosatidagi savolning o'zi ham tabiiy ravishda o'zgaradi. Yer kimga berildi, qanchaga sotildi degan savollar bilan birga u yerda nima yaratildi, qancha qiymat hosil qilindi va hudud hayotida qanday o'zgarish paydo bo'ldi degan savollar ham birinchi o'ringa chiqadi.

Yer — avloddan avlodga o'tib kelayotgan boylik. Uning imkoniyati cheklangan, shuning uchun har bir qarichidan unumli foydalanish muhim. Yer islohotining natijasi uni qanchaga sotishda emas, unda qancha ish o'rni yaratilgani, qancha mahsulot ishlab chiqarilgani va odamlar hayotiga qanday naf keltirayotganida ko'rinadi. Yangi yondashuvning mohiyati ham shunda.

YANGI O'ZBEKISTON



Islohot odimlari



KONSTITUTSIYAVIY TAMOYILDAN AMALIY HARAKATGA

Inson hayotida shunday holatlar bo'ladiki, ularni hal qilishni ortga surib bo'lmaydi. Bemorga tibbiy yordam, ishsiz oilaga daromad manbai, keksalarga mehr-muruvvat, nogironligi bo'lganga munosib sharoit kerak. Shuning uchun ijtimoiy himoya haqida gap ketganda, avvalo, raqamlar yoki dasturlarni emas, ular ortida turgan inson taqdirini ko'rish muhim.



Nazira MUXTOROVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasining
Mehnat, sog'liqni saqlash va
ijtimoiy masalalar
qo'mitasi raisi

Keyingi yillarda O'zbekistonda ijtimoiy siyosatga munosabat aynan shu nuqtayidan nazaridan o'zgaradi. Davlatimiz rahbari raisligida 3-sentabr kuni kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadini oshirish bo'yicha ishlarini yangi bosqichga olib chiqish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektorda ham inson qadriini ulug'lash, ehtiyojmand oilalarni barqaror daromad manbaiga olib chiqish va ijtimoiy himoya samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi tashabbuslar ilgari surildi.

Prezidentimiz islohotlar markaziga inson qadriini qo'yar ekan, ijtimoiy himoyani faqat ehtiyojmand aholiga moddiy ko'mak berish bilan cheklanadigan soha emas, balki insonning munosib yashashi, mehnat qilishi, sifati tibbiy xizmat olishi

Selektordagi tashabbuslarning eng muhim jihati ham shundaki, kambag'allikni qisqartirishga endi faqat mablag' ajratish yoki bir martalik yordam ko'rsatish nuqtayi nazaridan emas, balki insonni daromadli mehnatga olib kirish, tadbirkorlik tashabbusini ko'lab-quvvatlash va uning natijadorligini ta'minlash vazifasi sifatida qaralmoqda. Aholi va tadbirkorlarga bozor, texnologiya, kasb, biznes reja va sotuv janjirini qamrab olgan kompleks yechim berish zarurligi ta'kidlandi.

Shuningdek, ehtiyojmand oilalardagi 48 ming bolani kasb-hunar va zamonaviy ko'nikmalarga yo'naltirish, bola parvarishi bilan band bo'lgan 10 mingdan ziyod ayol uchun uyda yoki mahallaning o'zida daromadli mehnat qilish imkoniyatini kengaytirish vazifalari belgilandi. Bu tashabbuslar ijtimoiy himoyaning faqat bugungi ehtiyojni qoplash emas, balki oilaning kelgusi iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratilganini ko'rsatadi.

Yangi tizimda har bir viloyat va tuman bo'yicha hokim boshchiligidagi maxsus shablar tashkil etiladi. Banklar, bandlik idoralari va iqtisodiy kompleks tashkilotlari aholi bandligi va daromadini oshirish masalalarini joyning o'zida hal qiladi. Viloyat, tuman va shahar hokimlari haftaning uch kunini bevosita kambag'allik va bandlik masalalariga bag'ishlaydi. Moliyaviy resurslar va qaror qabul qilish vakolatlarining katta qismi tuman darajasiga tushiriladi.

Ijtimoiy himoya mexanizmlari ham yangi yondashuv asosida takomillashtiriladi. Ijtimoiy reyestrda kiritishda faqat oila daromadi emas, balki surunkali kasallik, nogironlik, ko'p bolalilik, oila a'zolarining xorijda ishlayotgani va boshqa ijtimoiy omillarni hisobga oladigan ko'p o'lchovli baholash tizimiga o'tiladi. Uch yoshgacha farzandi bor oilalarda kambag'allik darajasi o'rtaacha 6,5 foizni tashkil etayotgani inobatga olinib, bola parvarishlayotgan ota-onalarni uyda yoki mahallaning o'zida ishlari va daromadli qilish choralarini belgilandi.

Bunday keng ko'lami ijtimoiy islohotlar parlament zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Davlatimiz rahbari belgilab bergan ustuvor vazifalarni barqaror huquqiy mexanizma



va og'ir vaziyatda davlat ko'magini his qilishiga xizmat qiladigan yaxlit tizim sifatida belgilab berdi.

Har qanday siyosatning samarasi, avvalo, inson hayotidagi o'zgarish bilan o'lchanadi. Prezidentimiz tashabbusi bilan kambag'allikni qisqartirish masalasining davlat siyosati darajasiga olib chiqilishi ijtimoiy siyosatdagi muhim burilishlardan biri bo'ldi. Natijada yil boshida 5,8 foizni tashkil etgan kambag'allik darajasi bugunga kelib 3,9 foizga tushdi. Ehtiyojmand aholi soni 2 million 200 mingdan 1,5 millionga kamaydi. 49 tuman va 3429 mahalla ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududga aylanib bormoqda.

Biroq hududlar bo'yicha natija bir xil emasligi, bir xil resursdan foydalangan tumanlarning samaradorlik keskin farq qilayotgani alohida ko'rsatib o'tildi. Masalan, Sharof Rashidov va Qarshi tumanlariga 2 trillion 300 milliard so'mdan kredit resursi berilgan. Sharof Rashidov tumanida mazkur mablag' hisobiga 30 ming odam kambag'allikdan chiqarilgan bo'lsa, Qarshi tumanida 13 ming ehtiyojmandning sharoiti yaxshilangan. Demak, kredit ajratishning o'zi yakuniy natija emas. Asosiy mezon har bir loyiha qancha doimiy ish o'rni ochgani va qancha oilani barqaror daromad manbaiga olib chiqqanidir.

aylantirish, qabul qilingan qonunlarning amalda qanday ishlayotganini nazorat qilish va hayotning o'zi qo'yayotgan yangi masalalarga huquqiy yechim topish parlament faoliyatining muhim vazifasidir.

Selektorda hudud rahbarlari oldiga yil yakuniga qadar 350 ming kishini doimiy ishga joylashtirish, yana 1 million odamning daromadini oshirish va 230 mingga oilani daromadli qilib chiqarish vazifalari qo'yildi. Bu raqamlar ortida har bir oilaning taqdiri, har bir insonning mehnat qilish va munosib yashash huquqi turibdi.

Bugun oldimizdagi eng muhim maqsad — ijtimoiy davlat degan yuksak konstitutsiyaviy tamoyilni har bir inson o'z hayotida his etadigan voqeikka aylantirishdan iborat. Buning uchun parlament faqat zamon bilan hamnafas qonunlar qabul qilibgina qolmay, jamiyatdagi o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilishi, inson manfaatlariga daxldor har bir masalaga huquqiy yechim topishda tashabbuskor bo'lishi kerak. Zero, inson qadriini ulug'lash siyosati xalq vakillarining ham eng yuksak maqsadi — har bir fuqaro Konstitutsiyada belgilangan ijtimoiy huquq va kafolatlarni kundalik hayotida real his etadigan mustahkam huquqiy muhit yaratishni talab etadi.



Kamolot pillapoyasi

Maktabgacha ta’lim tizimi har qanday davlatning ijtimoiy va intellektual taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Chunki bolaning dunyoqarashi, nutqi, tafakkuri, mulqot qobiliyati, jismoniy va ijtimoiy ko‘nikmalari aynan maktabgacha ta’lim davrida shakllana boshlaydi. Bu tizimni rivojlantirish nafaqat ta’lim sohasi, balki mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot yo‘lining muhim yo‘nalishlaridan biridir.



xizmatni tashkil etish masalalariga alohida e’tibor qaratish zarur.

Eng muhim omillardan biri malakali kadrlar ta’minotidir. Zamonaviy bog‘chada faoliyat yuritayotgan pedagog nafaqat bolani parvarish qilishi, balki uning nutqi, tafakkuri, ijodiy qobiliyati, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun huquqlarini ta’minlash uchun zarur.

Kelgusida Qashqadaryo viloyatida DXSH asosidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini yanada kengaytirish uchun hududlar kesimidagi mavjud ehtiyojni chuqur o‘rganish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, qamrov nisbatan past bo‘lgan qishloq va mahallalardagi bo‘sh yer maydonlaridan samarali foydalanish, sohaga tadbirkorlarni jalb qilish va investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash g‘oyat muhim.

Keng ko‘lamli islohotlar natijasida bugun viloyatda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrov darajasi 13 foizdan 75 foizga oshgani



Yurtdoshlarimiz orasida oddiy umumta’lim maktablarida “o‘qish sifati past, bilimli o‘qituvchilarning hammasi xususiy maktablarda”, qabilidagi gap-so‘zlarni eshitib qolamiz. To‘g‘ri, oddiy maktablarda bolalar bir navbatda kechga qadar o‘qitilmaydi. Chunki o‘qituvchilarning ko‘pligi bunga imkon ham bermaydi. Biroq ayni paytda odatiy maktablarda ham 1000-2000 dollar miqdorida maosh olib ishlayotgan pedagoglar talaygina. Bu esa o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Zero, o‘qituvchiga eng yuqori baho o‘quvchisi erishgan yutuqlar uchun beriladi. Shu ma’noda, oddiy maktablarda ham milliy sertifikatlar soni, oliy ta’limga kirish ko‘rsatkichi ortib boryapti.

100 FOIZLI NATIJA

Bunda nimalar muhim omil bo‘lyapti?

Masalan, Qoraqalpog‘istonning Amudaryo tumanidagi 36-maktabni bu yil tamomlagan 25 bitiruvchining barchasi oliy ta’limga o‘qishga kirdi. Maktab o‘qituvchilarining 40 dan ortig‘ida, o‘quvchilarning 82 nafarida milliy va xalqaro sertifikatlar mavjud. 4 nafar muallim Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalq ta’limi a’lochisi. Shuningdek, pedagoglar orasida boshqa faxriy unvonlar bilan taqdirlanganlar bor. Shunga monand maktab o‘quvchilarining fan olimpiadalaridagi natijalari ham yildan yilga o‘sib boryapti. Jumladan, ingliz tili fani bo‘yicha xalqaro “ELLO olimpiadasi”da maktabning 4-sinf o‘quvchilari tuman bosqichida birinchi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi bosqichida esa ikkinchi o‘rinni egalladi. 11-sinf bitiruvchilaridan biri Malayziyadagi nufuzli oliyog‘ha o‘qishga qabul qilindi. Qolgan 24 nafari esa respublikamizning turli nufuzli oliy ta’lim muassasalarida tahsilni davom ettiradi.

36-maktabda o‘zi ham, o‘quvchilari ham muvaffaqiyatga erishayotgan fidoyi ustozlar ko‘p. Jumladan, fizika fani o‘qituvchisi Xushnud Charshamov O‘qituvchilar olimpiadasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi bosqichida birinchi o‘rinni egalladi. Oliy toifali pedagog milliy va xalqaro sertifikatlar sohibi sifatida vazir ustamasini oladi. Shuningdek, pedagog kadrlar attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o‘tib, 70 foizli ustamani ham olib kelyapti. Hamma daromadini hisoblaganda, Xushnud Charshamov salkam 2000 dollar miqdorida oylik maosh olib kelayotir.

orqali o‘qituvchilarning darsini muntazam kuzatib boraman. Maqsadimiz bitta — natijaga erishish. Makzur maktabda bitiruvchi yoshlarni oliy ta’limga kirish imtihonlariga tayyorlashga alohida e’tibor beriladi. Qariyb 40 o‘qituvchining barchasi o‘ziga birlashtirilgan o‘quvchiga qo‘shimcha dars o‘tadi. Oliyog‘halariga tayyorlovchi “Abituriyent” shtabi tashkil qilingan. Agar o‘quvchi biror o‘quv markaziga qatnayotgan bo‘lsa, unga mas’ul o‘qituvchi o‘sha markazga ham borib, bolada qanaqa yutuqlar, qanday kamchiliklar bo‘layotgani yuzasidan mulqot qiladi. Buning natijasi o‘laroq, maktab bitiruvchilarining kamida 2 ta sertifikat olishi tabiiy hol bo‘lib qoldi. Bu yil, ayniqsa, sertifikatlar soni bo‘yicha rekord natijaga erishildi. To‘rt nafar o‘quvchi 189 ballni qo‘lga kiritib, muddatidan oldin talaba bo‘ldi.

— Maktabimiz reytinging oshib borishi va buning ortidan keladigan e’tiroflar bizni yanada ilg‘or ishlash, yutuqlar salmog‘ini ko‘paytirishga undaydi, — deydi Fotima Karimova. — Yoshlarni oliy ma’lumotli, el koriga yaraydigan insonlar etib tarbiyalash bilan bog‘liq rejalimiz ko‘p. Shu ma’noda, o‘quvchilarning bilimini tez-tez sinovdan o‘tkazib, o‘zimizga kerakli xulosa chiqaramiz va bu bo‘yicha jiddiy ishlaymiz. Bundan tashqari, har chorakda nazorat ishi o‘lamliz va tahlil qilamiz. Bitta chorakda natijaga erisha olmagan o‘quvchiga keyingi chorakkacha imkon beramiz.

O‘sha o‘quvchi harakat qiladi, o‘z ustida ishlaydi. Qattiq o‘qiydi. Qarabsizki, keyingi chorakda natija yaxshi bo‘ladi.

Kichik jamoadan katta yutuqlar

Mirzaobod tumanidagi 33-maktabning 10 nafar bitiruvchisi test sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tib, oliy ta’lim muassasalariga qabul qilindi. Ibrat qilsa arizgulik bunday maktablarni mamlakatimizning turli hududida uchratish mumkin. Bu natijalar zamirida ta’lim sohasiga qaratilayotgan yuksak e’tibor mujassam. Buning misoli o‘laroq, yaqinda Jizzax viloyatining G‘allaorol, Forish, Baxmal, Zomin singari hududlaridagi maktablarga uzoq qishloqlardan keluvchi o‘g‘il-qizlar uchun 15 ta mikroavtobus ajratildi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida o‘lis va chekka hududlardagi maktab o‘quvchilariga munosib sharoit yaratish, ushbu iniy yaqin maqsadida maktab avtobuslari ajratish ko‘zda tutilgan. Shu ma’noda, ayni kunlarda poytaxtda ham o‘quvchilarning maktabga qanday qatnashi va maktab avtobuslariga ehtiyoji so‘rovnomasida o‘rganilmoqda. Demak, mikroavtobuslarga ehtiyoj hamda zaruratdan kelib chiqib ushbu tizimni joriy etish masalasi ham ko‘rib chiqiladi.

Bugun Prezident ta’lim muassasalarida ixtisoslashtirilgan maktablar qatori oddiy umumta’lim maktablariga ham xorijiy til egalari, tajribali pedagoglar olib kelinayapti. Yangi o‘quv yili boshida Andijonning eng chekka Qo‘rg‘ontepa tumanidagi 27-maktabda filippinlik pedagog ingliz tilidan dars bera boshladi. Asta-sekin tumanidagi boshqa maktablar ham shunday muallimlar bilan ta’minlanadi. Bu tajriba barcha hududda yo‘lga qo‘yilishi ko‘zda tutilgan.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Muhabbat SHARAPOVA,
O‘zbekiston Qahramoni

Keyingi yillarda ayni sohani isloh qilish, bolalarni sifatli ta’lim-tarbiya bilan qamrab olish, yangi bog‘chalar qurish, mavjud muassasalarni rekonstruksiya qilish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Sohada davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari joriy etilishi maktabgacha ta’lim infratuzilmasini kengaytirish uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Davlat tomonidan yaratilayotgan huquqiy va iqtisodiy sharoitlar xususiy tadbirkorlarni ijtimoiy ahamiyatga ega ushbu sohaga investitsiya kiritishga rag‘batlantirmoqda. Maktabgacha ta’lim sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan keng qamrab olish barobarida ta’lim-tarbiya sifatini ham oshirishdan iboratdir.

Bu jarayonda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash, zamonaviy binolar qurish, ularni o‘quv-metodik jihozlar bilan ta’minlash, shuningdek, bolalar uchun xavfsiz va qulay muhit yaratish muhim vazifalar sifatida namoyon bo‘lmoqda.



Bunyodkorlik

Navbahor tumanida milliardlab mablag‘ evaziga ko‘p qavatli, zamonaviy maktab binolari qurilyapti. Eski binolar mukammal ta’minlanib, zarur hollarda qo‘shimcha imoratlar qad rostlayapti.

— Tumanimizda 37 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabi bor. Ularda 18 ming 250 yigit-qiz ta’lim oladi, — deydi Navbahor tumani maktab va maktabgacha ta’lim bo‘limi boshlig‘i Abduhoshim Qarshiyev. — Hozir hududdagi 115 ta obyektda obodonlashtirish, qurilish-bunyodkorlik ishlari bajarilyapti. Shundan 10 tasi ijtimoiy soha, jumladan, umumiy o‘rta ta’lim maktablariga to‘g‘ri keladi. Ulardan 8 tasida qo‘shimcha binolar qurilmoqda. O‘quvchilarning munosib sharoitda ta’lim olishi uchun maktablar zamonaviy jihozlar bilan ta’minlanadi. Qurilish-ta’minlash ishlari sifati, uning loyiha asosida bajarilishi doimiy nazoratda. Yangi qurilayotgan ta’lim tashkilotlarida, obyektlarda energiya tejamlorligiga ham alohida e’tibor qaratilyapti. To‘siqsiz muhit, yani inklyuziv ta’lim oladigan o‘quvchilar uchun ham barcha sharoit yaratib berilmoqda.

Xususan, tumandagi 1-maktabda 10 milliard 815 million 800 ming so‘m evaziga mavjud 840 o‘rinli o‘quv binosi mukammal ta’minlandi. Shuningdek, qo‘shimcha 480 o‘rinli yangi bino qurilyapti.

Navkar mahallasidagi 14-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ham ana shu o‘rnatilgan joy o‘lgan. Maktabda 660 o‘quvchi tahsil oladi. Mavjud bino esa 200 o‘ringa mo‘ljallangan edi. Talabdan kelib chiqib eski bino mukammal ta’minlandi. Qolaversa, 340 o‘ringa mo‘ljallangan 3 qavatli yangi bino qurilyapti. Loyiha qiymati 5 milliard 760 million so‘mni tashkil etadi.

Navbahor mahallasida joylashgan 8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi butunlay yangi qiyofaga kirdi. Maktabning mavjud eski o‘quv binosi mukammal ta’minlandi va yangi

Ayniqsa, aholi zich yashaydigan hududlarda yangi bog‘chalar qurishga ehtiyoj juda yuqori. Yangi turar joy massivlari, qishloq va mahallalarda aholi soni muttasil o‘rtishi maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini muntazam kengaytirishni talab etmoqda. Shu bois, davlat muassasalari bilan birga nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini ko‘paytirish va ularni davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Qashqadaryo aholisi soni va hududi kattaligi jihatidan yirik viloyatlardan biri bo‘lgani sababli bu yerda maktabgacha ta’lim xizmatlariga ehtiyoj ancha yuqori. Viloyatda yangi bog‘chalar qurish, mavjud muassasalarni kengaytirish hamda nodavlat ta’lim tashkilotlarini tashkil etish dolzarb vazifalardan biri.

Shu bois, Shahrisabz, Chiroqchi, Mirishkor, Yakkabog‘, Kasbi tumanlari va Qarshi shahrida davlat-xususiy sheriklik asosida yangi maktabgacha ta’lim tashkilotlari qurish loyiholari ilgari surilmoqda.

Hozirgi kunda viloyatda jami 22 ming 490 o‘ringa mo‘ljallangan, davlat-xususiy sheriklik asosidagi 208 ta nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat yuritib kelmoqda. Ularga 20 mingdan ziyod bola qamrab olingan bo‘lib, 1428 xodim mehnat qilmoqda.

2026-yilning birinchi yarmida viloyatda umumiy quvvati 825 o‘rinli, DXSH asosidagi 6 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti ochilib, 82 ta yangi ish o‘rni yaratildi. 2025-yilning birinchi yarim yilligida 4 ta DXSH bitimi imzolaniib, jami 400 o‘rinli muassasalar barpo etilgan edi.

Bugungi kunda viloyatda jami 124 ming 531 o‘rinli, DXSH asosidagi 3588 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti mavjud bo‘lib, ularga 115 ming 824 bola qamrab olingan. 2026-yilning birinchi yarmida viloyatda umumiy quvvati 16 ming 592 o‘ringa mo‘ljallangan 458 ta yangi oilaviy muassasa ish boshladi va 1430 ta yangi ish o‘rni ochildi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini qator ijtimoiy-iqtisodiy natijalar beradi. Xususiy sektor vakillari ta’lim sohasiga faqatgina mablag‘ emas, balki yangi boshqaruv usullari, zamonaviy ta’lim



texnologiyalari va innovatsion yondashuvlarni ham olib kiradi.

Birinchidan, yangi tashkilotlar ochilishi natijasida bolalarning bog‘chalarga qamrov darajasi oshadi.

Ikkinchidan, mazkur muassasalar aholi, ayniqsa, yosh oilalar uchun katta qulaylik yaratadi. Bog‘chaning yashash joyiga yaqinligi ota-onalarning vaqtini tejaydi.

Uchinchidan, hududlarda qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratiladi. Bu orqali tarbiyachi, pedagog, psixolog, tibbiyot xodimi, oshpaz va boshqa mutaxassislarga ehtiyoj qondirilib boriladi.

To‘rtinchidan, xususiy muassasalar o‘rtasidagi sog‘lom raqobat ta’lim xizmatlari sifati oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishda faqat muassasalar sonini ko‘paytirishning o‘zi yetarli emas. Qurilayotgan har bir bog‘cha zamonaviy ta’lim talablariga to‘liq javob berishi lozim. Bunda binolar xavfsizligi, xonalarning bolalar yoshiga mosligi, o‘yin va sport maydonchalari mavjudligi, ovqatlanish sharoitlari, sanitariya-gigiyena talablari hamda tibbiy

qanday yuqori natijalar qo‘lga kiritilayotganidan dalolat beradi. 2026-yilda qabul qilingan yangi yondashuvlarga ko‘ra, qamrov darajasi 80 foizdan past bo‘lgan tuman va shaharlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlarini DXSH asosida tashkil etuvchi tadbirkorlik subyektlariga qator qo‘shimcha imtiyoz va yengilliklar belgilandi. Ular orasida ayrim hollatlarda 30 yil davomida ijara to‘lovini undimlaslik va har bir bitiruvchi uchun xarajatlarning 50 foizi miqdorida subsidiya ajratish kabi mexanizmlar nazarda tutilgan. Bunday imkoniyatlar Qashqadaryo kabi aholisi ko‘p va hududi keng viloyatlarda maktabgacha ta’lim tarmog‘ini jadal kengaytirishga xizmat qiladi.

Yangi qurilayotgan har bir bog‘cha faqatgina bino emas, balki bolaning sog‘lom, bilimli, ijodkor va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur ta’limiy muhit sifatida shakllantirilishi lozim.

Maktabgacha ta’limga yo‘naltirilayotgan investitsiya mamlakatimizning ertangi intellektual va ijtimoiy salohiyatiga kiritilayotgan eng buyuk sarmoyadir.



ZAMONAVIY IMKONIYATLAR TA’LIM SIFATI OSHISHIGA XIZMAT QILADI

qo‘shimcha binoga ega bo‘lyapti. Bu ishlar uchun Islom taraqqiyot banki va OPEK xalqaro taraqqiyot jamg‘armasidan 3 milliard 386 million 600 ming so‘m ajratilgan.

— Maktabimizning 525 o‘rinli binosida 700 o‘quvchi ta’lim olib kelayotgan edi, — deydi Navbahor tumanidagi 8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktori Gavhar Rahimova. — Maktab 1956-yilda qurilgan. Hozir 240 o‘rinli qo‘shimcha bino qurib berilyapti. O‘tgan o‘quv yilida 48 bitiruvchimizdan 10 nafar muddatidan oldin talaba bo‘ldi. Hozir ustozlarimizdan 5 nafar 70 foizli vazir ustamasiga ega. Oliy toifa va birinchi toifali o‘qituvchilarning safi kengayib bormoqda. Sertifikat olgan o‘quvchi va o‘qituvchilarning soni yildan yilga oshib bormoqda. Albatta, bu bizga yaratib berilayotgan zamonaviy sharoitlar, qo‘shimcha darslar, to‘garaklarning natijasi. Kelgusida yangi qurib berilayotgan binolar o‘qituvchi va o‘quvchilarning bilimni yanada oshirishda, bundan-da katta yutuqlarga erishishga kuchli rag‘bat bo‘ladi. Qo‘shimcha bino boshlang‘ich

sinf o‘quvchilarimizga moslashtirilgan bo‘lib, u yerda inklyuziv ta’lim oluvchi o‘quvchilar uchun ham sinf xonalari bor.

Navbahor tumanidagi 22-umumiy o‘rta ta’lim maktabida loyiha qiymati 3 milliard 448 million 300 ming so‘mlik ish bajarilmoqda. Xususan, 180 o‘rinli bino mukammal ta’minlandi va 240 o‘ringa mo‘ljallangan qo‘shimcha bino barpo etilmoqda. Qurilayotgan har bir maktabda inklyuziv ta’limga jiddiy e’tibor berilmoqda. Ularda liftlar, zamon talabiga mos sinfxonalar va jihozlar bo‘ladi. Bunday imkoniyatlar o‘quvchiga ham, o‘qituvchiga ham shijoat beradi.

— Maktabimizning 180 o‘ringa mo‘ljallangan eski binosida 446 o‘quvchi tahsil olar edi, — deydi tumandagi 22-umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktori Izzat Soipov. — Hozir maktabimizga yangi bino qurib berilmoqda. Eski binolarda eng katta xonalar sig‘imi 25 o‘quvchiga mo‘ljallangan edi. Yangi binoda barcha xonalarda 30-35 o‘quvchi ta’lim olish imkoniyatiga ega.

Navbahor tumanidagi 5-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ham namunali ta’lim maskanlaridan.

Ushbu ta’lim dargohida ham o‘quv binosi 3 milliard 393 million 300 ming so‘m evaziga mukammal ta’minlandi.

— Maktabimiz 2001-yilda ishga tushirilgan. U 844 o‘rinli bo‘lsa-da, 918 o‘quvchi ta’lim olib kelmoqda, — deydi maktab direktori Maqsuda G‘afforova. — Maktabimiz shu yil mukammal ta’minlandi va zamonaviy imkoniyatlar yaratildi. Yangi binoda 40 o‘rinli oshxona, kutubxona, faollar zali, sport zalari mavjud. O‘quvchilar ta’lim olishi uchun hamma sharoit bor. Inklyuziv ta’lim xonalarini tashkil qilyapmiz. O‘tgan yili maktabimiz o‘quvchilarining 60 foizi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirdi. Mana, bu yil rejamizda 70 foiz natijani kutypmiz.

Tumandagi barcha ta’lim muassasalarida ta’minlash ishlari bajariladi. Zarur hududlarda esa yangi binolar qurilishi reja asosida davom etmoqda.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
